



UDK: 811.112.2'373.

Bobomurod MIRSANOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti, PhD

SamDChTI professori, f.f.n M.Begmatov taqrizi ostida

SECONDARY NAMING FORMED THROUGH CONVERSION IN THE GERMAN LANGUAGE

Annotation

This study is devoted to the investigation of secondary naming in German formed through conversion. Conversion is the process of creating a new meaning by changing the lexical-grammatical category of a word, and it is widely used in German within the structure of zoonyms and phytonyms. The study analyzes nominalizations derived from adjectives. The role of ellipsis, the metaphorical and metonymic foundations in secondary naming, as well as naming mechanisms based on color, external appearance, and activity features, are highlighted. Examples such as the lexemes and terms "Bläuling," "Gelbling," and "Grünling" are analyzed. The results of the study reveal the interaction of intralinguistic (ellipsis) and extralinguistic factors in the process of secondary naming, as well as the importance of metaphorical and metonymic bases in lexical-semantic development.

Key words: German language, conversion, secondary naming, substantivization, zoonym, phytonym, metaphor, ellipsis, extralinguistic factors, intralinguistic factors.

ВТОРИЧНОЕ НАИМЕНОВАНИЕ, ОБРАЗОВАННОЕ ПУТЕМ КОНВЕРСИИ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Данное исследование посвящено изучению вторичного наименования в немецком языке, образованного посредством конверсии. Конверсия – это процесс образования нового значения путем изменения лексико-грамматической категории слова, который широко применяется в немецком языке в составе зоонимов и фитонимов. В исследовании анализируются номинализации, образованные от прилагательных. Рассматривается роль эллипсиса, метафорических и метонимических оснований во вторичном наименовании, а также механизмы наименования, основанные на цвете, внешнем виде и признаках деятельности. В качестве примеров анализируются лексемы и термины "Bläuling," "Gelbling," и "Grünling". Результаты исследования показывают взаимодействие интралингвистических (эллипсис) и экстралингвистических факторов в процессе вторичного наименования, а также значение метафорических и метонимических оснований в лексико-семантическом развитии.

Ключевые слова: Немецкий язык, конверсия, вторичное наименование, субстантивация, зооним, фитоним, метафора, эллипсис, экстралингвистические факторы, интралингвистические факторы.

NEMIS TILIDA KONVERSIYA ASOSIDA VOQELANGAN IKKILAMCHI NOMLASHLAR

Annotasiya

Ushbu tadqiqot nemis tilida konversiya orqali shakllangan ikkilamchi nomlashlarni o'rganishga bag'ishlangan. Konversiya – so'zning leksik-grammatik kategoriyasini o'zgartirib, yangi ma'no hosil qilish jarayoni bo'lib, nemis tilida zoonimlar va fitonimlar tarkibida keng qo'llaniladi. Tadqiqotda sifatlarning otlashishi asosida yuzaga kelgan nomlashlar tahlil qilinadi. Ellipsisning roli, ikkilamchi nomlashdagi metaforik va metonimik asoslar, shuningdek, rang, tashqi ko'rinish va faoliyat belgilariga asoslangan nomlash mexanizmlari ko'rsatib o'tiladi. Misol sifatida "Bläuling," "Gelbling," "Grünling" kabi leksema va atamalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ikkilamchi nomlash jarayonida intralingvistik (ellipsis) va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'sirini hamda metaforik va metonimik asoslarning leksik-semantik rivojlanishda ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Nemis tili, konversiya, ikkilamchi nomlash, substantivatsiya, zoonim, fitonim, metafora, ellipsis, ekstralingvistik omillar, intralingvistik omillar.

Kirish. Ma'lumki, konversiya deganda, so'zning o'zi mansub bo'lgan leksik-grammatik kategoriyadan boshqa leksik-grammatik kategoriyaga ko'chishiga aytiladi. Konversiya hodisasi bo'yicha dunyoning ko'plab tilshunoslari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, rus tilida konversiya V.V. Vinogradov, E.A. Zenskaya, E.S. Kubryakova, V.V. Lopatin, I.G. Miloslavskiy, V.M. Nikitovich, M.A. Shelyakin va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan; fransuz tilida – Sh. Balli, V.G. Gak, D.B. Ismailova, N.M. Kleymyonova, M. Koen, T.V. Kravtsova, A.A. Larkina, Z.N. Levit, N.N. Lopatnikova, N.A. Movshovich, Yu.S. Stepanov va boshqalar; ingliz tilida – M.S. Asanova, Yu.A. Zhluhtenko, O.G. Il'inskaya, G. Marchand, E.A. Saidashova, A.I. Smiritskiy va boshqalar; nemis tilida – G.R. Iskandrova, E.V. Pruntova, L.A. Yushkova va boshqalar; ispan tilida esa –

N.D. Arutyunova, V.A. Iovenko va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Konversiya (lot.conversio-aylanish) so'z yasashning semantik-grammatik usulining alohida ko'rinishini tashkil qiladi. Bunda bir turkumdagi so'z ikkinchi bir turkumga o'tadi. Uning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi.[4]

"Konversiya" termini lotincha kelib chiqishga ega bo'lib, "o'zgarish" ma'nosini bildiradi [5].

Konversiya qiziqarli til hodisalaridan biri bo'lib, u tilning ifoda va mazmun rejalarini solishtirish orqali o'rganilganda namoyon bo'ladi. Konversiya yuzaga kelganda, so'z yangi sintaktik muhitga kiradi, yangi sintaktik funksiyadan chiqadi, yangi ma'no va paradigmalarni morfologik o'zgarishlar natijasida hosil qiladi [2; 41].

Lingvistik terminlar lug'atida qayd etilishicha, "konversiya" so'zi inglizcha "conversion" so'zidan kelib

chiqqan bo'lib, yangi so'zlarni yaratish va so'z o'zgartiruvchi paradigmalarini hosil qilish usulini anglatadi [1].

Konversiya hodisasida ham boshqa so'z yasash usullaridek, faqat bir ma'noli so'z

yasaladi, biroq keyinchalik ularning ko'pchiligi ko'p ma'noli bo'lib ketadi. Konversiya usuli yordamida hosil bo'lgan yangi so'zlar konversiyaning ko'p marta takrorlanishiga bog'liq. Ya'ni o'zak so'z qancha ma'noga ega bo'lsa, konversiyaga shuncha ko'p to'g'ri keladi. Ushbu fikrga xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, konversiya usuli bilan faqat yangi so'zlarni hosil qilish bilan chegaralanib qolmasdan, yangi-yangi ma'noli so'zlar ham hosil qilish mumkinligini aytish joiz [3].

Nemis tilida zoonimlar tarkibida ham, fitonimlar tarkibida ham konversiya tufayli yuzaga kelgan ikkilamchi nomlashlar mavjud, ular asosan sifatarning otlashishidan yuzaga keladi. Otlashish jarayoni lisoniy omillardan biri – ellipsisning ishtiroki bilan kechadi. Xususan, sifatlovchi-sifatlanmish tipidagi birikmalar tarkibidan sifatlanmishning ellipsisga uchrashi bunga sabab bo'ladi. Sifatlanmish til egasining zehniyatida saqlanadi: Bläulinge – ko'kchalar (kapalak) > Bläulinge kabi.

Keyingi vaqt mobaynida konversiya orqali shakllangan ikkilamchi nomlashlarning safi kengaydi, xususan, fitonimlar va zoonimlar tarkibida – + ling vositasida terminlar yasalishi ayniqsa kuchaydi. Bu affiksning termin yasovchi faol affiksga aylangani tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ham ko'rsatib o'tiladi.

Tahlil va natijalar. Quyida sifatlardan konversiya orqali shakllangan ikkilamchi nomlashlarning motivlashuvi yuzasidan mulohaza yuritamiz.

Nemis tilidagi “Bläuling” leksemasi ham konversiya asosida yuzaga kelgan rangga asoslangan ikkilamchi nomlash namunalari biridir. So'zning asosiy tarkibiy qismi “blau” (ko'k rang) sifati bo'lib, unga “-ling” suffiksi qo'shilishi natijasida yangi ot hosil bo'lgan. Shunday qilib, “Bläuling” dastlab “ko'k rangli jonivor yoki narsa” ma'nosini bildirgan, keyinchalik esa zoologik atama sifatida leksik-semantik jihatdan mustahkamlanib, muayyan tur nomiga aylangan.

“Bläuling” termini entomologiyada Lycaenidae oilasiga mansub kunduzgi kapalaklarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu oila dunyo bo'yicha 5200 dan ortiq turga va 400 dan ziyod jinsga ega. Ko'pchilik Yevropa turlarining erkak vakillari ko'k rangdagi qanot ust qismi bilan ajralib turadi, shuning uchun ular “Bläulinge” deb ataladi.

Bu nom o'zining rang asosidagi vizual belgisi tufayli berilgan bo'lib, kapalaklarning tashqi ko'rinishi nomlashda asosiy mezon sifatida xizmat qilgan. Shu tariqa, “Bläuling” termini metaforik asosda voqelangan ikkilamchi nomlash bo'lib, tabiiy obyektning tashqi belgisi (rang) asosida semantik motivatsiyani olgan.

So'z “blau” sifatidan “-ling” suffiksi yordamida hosil bo'lgan ot shaklidir. Bu yerda so'z turkumi o'zgarishi (sifat → ot) orqali konversiya jarayoni sodir bo'lgan. Semantik jihatdan “Bläuling” — “ko'kimtir jonivor” yoki “ko'k rangli mavjudot” ma'nosini bildiradi. Keyinchalik mazkur ma'no muayyan zoologik tur nomi bilan mustahkamlanib, terminologik birlikka aylangan.

“Bläuling” leksemasining metaforik tabiatini shundan ham ko'rish mumkinki, unda rang (blau) jonivorning tur identifikatoriga aylangan. Bu holat nemis tilida leksik-semantik nomlash mexanizmlarining ranglar asosida shakllanishini ko'rsatadi.

Nomlash jarayonida metaforik uzatish kuzatiladi: rang belgisi jonivor nomiga ko'chirilgan. Bu esa vizual qabul qilish asosida hosil bo'lgan ikkilamchi nomlashni anglatadi. “Bläuling” so'zining shakli nafaqat ma'no darajasida, balki

morfologik jihatdan ham derivatsion model (rang + suffiks -ling) asosida barqarorlashgan.

So'zning ko'plik shakli – “Bläulinge” ko'pincha biologik tasnifda butun oilani yoki jinsni anglatadi. Bu esa atamaning terminologik barqarorligini ko'rsatadi.

“Bläuling” leksemasi nemis tilidagi rang asosidagi konversiv nomlash tizimining yorqin namunalaridan biridir. U sifatdan otga o'tish orqali hosil bo'lgan, metaforik ma'noga ega, zoologik termin sifatida mustahkamlangan birlikdir. Bu hodisa rang semasining nomlashda asosiy semantik motivator sifatida faol ishtirok etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, “Bläuling” so'zining morfologik tuzilishi (blau + -ling) nemis tilidagi derivatsion modellarning tizimligini tasdiqlaydi.

Die Bläulinge (Lycaenidae) sind eine Familie der Schmetterlinge (Tagfalter). Sie kommen weltweit mit ca. 6.000 Arten vor. Fast alle europäischen Arten haben blau gefärbte Flügeloberseiten, daher der Name. Die Falter erreichen eine Flügelspannweite von 24 bis maximal 50 Millimetern. Ihre Vorderflügel sind kompakt und nur 1,4 bis 1,9 mal länger, als sie breit sind. Die Flügeloberseiten sind überwiegend dunkelbraun, kupferfarben, blau oder violett gefärbt. Bei manchen Arten weisen die Flügeloberseiten einen metallischen Schimmer auf. Auf der Unterseite tragen viele Arten ein Muster aus dunklen, zum Teil hell umrandeten Flecken. An diesen sind die sehr schwer zu unterscheidenden Arten bei genauer Betrachtung gut zu bestimmen. Manche Arten haben Augenflecke, mit denen sie Fressfeinde überlisten, indem sie ihre Sitzposition umgekehrt einnehmen und dadurch sich vermeintlich von hinten anschleichende Angreifer früh erkennen können.

[https://biologie-seite.de/Biologie/ Bläulinge]

Bläulinge (Lycaenidae) kapalaklar oilasiga (kunduzgi kapalaklar, ya'ni Tagfalter) mansub bir turkumdur. Ular dunyo bo'yicha taxminan 5200 ta tur va 416 ta jinsga ega (2011-yilgi ma'lumotlarga ko'ra).

Ko'plab Yevropa turlarining erkak kapalaklari ko'k rangdagi qanot ust qismi bilan ajralib turadi, shuning uchun ularga “Bläulinge” (“ko'kchalar”) nomi berilgan.

Nemis tilidagi “Gelbling” leksemasi ko'p ma'noli birlik bo'lib, u konversiya (ya'ni so'z turkumi o'zgarishi) asosida yangi ma'no kasb etish) jarayoni orqali shakllangan ikkilamchi nomlashga misol bo'la oladi. Mazkur so'z “gelb” (sariq) sifatidan “-ling” suffiksi yordamida hosil bo'lgan va dastlab “sariq rangli narsa yoki mavjudot” ma'nosini bildirgan. Keyinchalik esa mazkur shakl turli biologik kontekstlarda — ham o'simlik, ham hayvon nomi sifatida qo'llanila boshlangan.

Gelbling, 1)Sibbaldia, Gattung der Rosengewächse, mit Sibbaldia procumbens, einer krautigen, rasenbildenden Pflanze mit gelben, 5 zähligen Blüten und graugrünen, 3 zähligen Blättern; Fiedern an der Spitze 3zählig. Der Gelbling ist in Schneetälchen und Schneemulden der alpinen Stufe zu finden. Salicetea herbaceae. 2)Weißlinge.

“Gelbling” termini Rosengewächse (atirguldoshlar) oilasiga mansub Sibbaldia procumbens turini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu o'simlik past o'suvchi, o'tli, gilam hosil qiluvchi shaklga ega bo'lib, sariq rangli, besh bargli gullari va kul-yashil, uch bo'lakli yaproqlari bilan ajralib turadi. U asosan alp tog'lari zonasida, ya'ni Schneetälchen (qorli vodiylar) va Schneemulden (qor chuqurlari)da uchraydi. Taksonomik jihatdan Salicetea herbaceae sinfiga kiradi.

Bu holatda “Gelbling” o'simlikning tashqi belgisiga (rangi) asoslangan metaforik ikkilamchi nomlash sifatida voqelangan. Shunday qilib, mazkur leksema rang asosida yuzaga kelgan konversiya natijasida hosil bo'lgan bo'lib, semantik jihatdan “sariq rangli o'simlik” ma'nosini anglatadi.

Gelbling. Kapalak turi, aniqrog'i kunduzgi kapalaklar oilasiga (Weißlinge) mansub hasharot. U sariq yoki to'q sariq rangdagi qanotlari bilan ajralib turadi.

Bu turga mansub bir nechta ko'rinishlar mavjud, masalan:

Regensburger Gelbling (Regensburg sariqchasi),

Goldene Acht (oltin sakkizlik, shuningdek Weißklee-Gelbling — oq beda sariqchasi), Postillon (yoki Orangeroter Kleefalter — to'q sariq beda kapalagi)

“Gelbling” quyidagicha konversiya asosida voqelangan ikkilamchi nomlashdir:

Asosiy so'z: gelb - “sariq” (rang bildiruvchi sifat)

Qo'shimcha: -ling - kichraytirish yoki shaxs/jonzot nomini yasovchi affiks

Natijada: Gelbling - “sariqchalar”, “sariq rangli jonivor” ma'nosida yangi ot hosil bo'lgan.

“Gelbling” zoologiyada Weißlinge oilasiga mansub kunduzgi kapalaklar uchun ishlatiladi. Bu tur vakillari sariq yoki to'q sariq qanotlari bilan ajralib turadi. Masalan, Regensburger Gelbling (*Colias hyale*), Goldene Acht yoki Weißklee-Gelbling (*Colias palaeno*) va Postillon yoki Orangeroter Kleefalter (*Colias croceus*) turlari shular jumlasidandir.

Bu kontekstdagi “Gelbling” jonivorga rang belgisi asosida berilgan nom bo'lib, metaforik nomlash tamoyiliga tayangan. Lingvistik nuqtayi nazardan, so'zning sifatdan otga o'tishi (gelb → Gelbling) bu yerda ham konversiya jarayonini aks ettiradi.

Har ikki holatda ham “Gelbling” so'zi sifatdan (gelb) otga (-ling yordamida) o'tgan bo'lib, konversiya asosida voqelangan ikkilamchi nomlash sifatida tavsiflanadi. Bu jarayonda rang belgisi asosiy nomlash mezonini bo'lib xizmat qiladi, ya'ni tashqi vizual xususiyat (sariqlik) obyektning identifikatsion belgisi sifatida nomga ko'chgan.

“Gelbling” leksemasi nemis tilidagi rang asosidagi ikkilamchi nomlash tizimida muhim o'rin tutadi. U konversiya (sifat → ot) orqali hosil bo'lgan, metaforik asosga ega, ko'p ma'noli birlik bo'lib, tabiiy obyektlarning tashqi belgilarini nomlashda rang semasining faol ishlatilishini ko'rsatadi. Bu holat nemis tilidagi biologik terminologiyaning leksik-semantik rivojlanish mexanizmlarini ochib beradi.

“Gelbling” nemis tilida polisemantik birlik sifatida rivojlangan: u bir vaqtning o'zida botanik va zoologik atama bo'lib, o'simlik hamda qushning rangi orqali metaforik tarzda nomlashning yaqqol namunasini tashkil etadi.

Der Grünling, auch Grünfink genannt, ist ungefähr so gross wie der Haussperling. Er besitzt einen kräftigen, schmutzig rosafarbenen Schnabel.

Qushning tashqi belgisiga, ya'ni yashil rangli jun yoki patlariga asoslanib nomlangan. Bu yerda rang + ot konversiyasi ikkilamchi nomlash ishlatilgan.

Grünling nomi rang asosidagi konversiya orqali hosil bo'lgan va qushning tashqi xususiyatini aks ettiruvchi metaforik motivatsiyaga ega.

Gründling (*Gobio gobio*). Die Gründlinge (*Gobio gobio*) sind heutzutage in großen Teilen ihres Verbreitungsgebietes wohl die häufigsten einheimischen Kleinfische. Der Gründling bewohnt bevorzugt ruhigere Abschnitte von Fließgewässern (von der Äschen- bis zur Brassenregion) mit sandig-kiesigem Bodensubstrat. Er kommt aber auch in der Uferzone stehender Gewässer und im Brackwasser vor. In Schwärmen lebender typischer Grundfisch.

Silberling (*Gerres filamentosus*) kichik, kumush rangli va silindrsimon tanali baliqlar bo'lib, tropikdan mo'tadil dengizlarga yashashni afzal ko'radi.

Nemischa “Silberling” so'zi “kumush rangli narsa” ma'nosini beradi. Bu nom baliqning tanasining rang xususiyatini bevosita aks ettiradi, ya'ni ilmiy-deskriptiv vazifani bajaradi.

Baliqning kichik va mayin tanasi, silindrsimon shakli nomga asos bo'lib, uning tashqi ko'rinishi va tananing proporsiyalarini aks ettiradi.

Nomning ilmiy-deskriptiv funksiyasi baliqning tanasi, o'lchami va rangini aniqlashga xizmat qiladi.

Kattalar odatda sohil yaqinidagi sho'r suvlar, qumli yoki kalsiyli o'simliklar bilan qoplangan hududlarda uchraydi.

Nom, shuningdek, uning yashash muhitini ham aks ettiradi, chunki kumush rang suv ostida yashirinish harakatlanishga yordam beradi.

Kichik qisqichbaqalar va hasharot lichinkalari bilan oziqlanishi, qum yoki loyni yutib filtrlayishi nomning ekologik va morfologik motivatsiyasini ustahkamlaydi.

Quyidagi Silberling turlari kumush rangli, mayin va silindrsimon tanali baliqlar sifatida xarakterlanadi. Ularning nomi nemischa “Silberling” so'zi orqali baliqning kumush rangini va tananing vizual xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, turlarga qo'shimcha epitettar qo'shilishi orqali nomlar morfologik, ekologik va geografik xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Fadenflossen-Silberling (*Gerres filamentosus*) – “ipchali” ma'nosini bildiradi, bu baliqning uzun va ingichka pichoqlarini aks ettiradi.

Langschwanz-Silberling (*Gerres longirostris*) – uzun dumga ega ekanligini ko'rsatadi.

Schlanker Silberling (*Eucinostomus jonesii*) – tananing ingichka tuzilishini ifodalaydi.

Schlankstachelsilberling (*Kurzflossen-Silberling*) – tananing morfologik xususiyatlariga asoslangan.

Gefleckter Silberling (*Eucinostomus lefroyi*) – tanadagi dog'li yoki naqshli ranglarni ifodalaydi.

Gelbflossen-Silberling (*Gerres cinereus*) – sariq rangli ta'kidlaydi.

Grauflossen-Silberling (*Eucinostomus argenteus*) – kulrang rang bilan tavsiflanadi.

Irischer Silberling (*Diapterus auratus*) – Irlandiya bilan bog'liq asoslangan.

Japanischer Silberling (*Gerres equulus*) – Yaponiya hududidagi tarqalishni aks ettiradi.

Südlicher Silberling (*Gerres subfasciatus*) – janubiy mintaqadagi yashash hududini bildiradi.

Barcha nomlar Silberling atamasi orqali baliqning kumush rangini bildiradi. Qo'shimcha epitettar esa baliqning tanasi, rang-barang naqshlari, dum uzunligi va geografik tarqalishi kabi xususiyatlarini aks ettiradi. Shu tarzda, turlar nomi ilmiy, morfologik, ekologik va geografik motivatsiyani birlashtiradi va ilmiy nomenklaturadagi standartlarga mos keladi.

Xulosa va takliflar. Ellipsis va konversiya hodisalari bir-birini taqozo etuvchi hodisalar bo'lib, sabab-natija munosabatini anglatadi. Shuning uchun ham ularning voqelanishi ikkilamchi nomlashning barcha usullarida ishtirok etadi. Demak, ular bir-biri bilan bog'liq ravishda sharhlanishi lozim.

Ishda ellipsis hodisasining ikkilamchi nomlashdagi ishtiroki va rolini ko'rsatishga harakat qildik va ikkilamchi nomlashning aksar usullarida ellipsis hodisasining doimiy yo'ldosh ekanligiga guvoh bo'ldik. Shu bilan birga bu hodisaning amal qilishini kuzatish davomida ikkilamchi nomlashning nutqiy bosqichi va lisoniy bosqichi mavjudligiga ishonch hosil qildik.

Ikkilamchi nomlashning bir turi hisoblangan konversiya hodisasi ta'sirida yuzaga kelgan substantivasiya

(otlashish) kabi kategorial o'zgarishning yuzaga kelishi lisoniy omillardan ellipsis bilan zich bog'langanligi sababli uni elliptik substantivasiya tarzida nomlash ma'qulroq ko'rinadi hamda hodisaning mohiyatini to'g'ri aks ettiradi.

Konversiya o'tish jarayoni sifatida ham, yangi so'zlar yaratish usuli sifatida ham qaraladi. So'zning shakli va hajmida hech qanday o'zgarish yuz bermasdan, bir so'z turkumi boshqasiga almashtiriladi, dastlabki so'z va shakl boshqa so'z va shakl bilan o'rni egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: 1966
2. Арбекова Т.И. Лексикология английского языка (Практический курс). М.: Высшая школа, 1977
3. Hamroyeva L.Z., "Ingliz tilida fe'llarning konversiya usulida yasalishi", Ученый XXI века, 2022, 3(84)
4. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. "Tilshunoslik asoslari" Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2007
5. Словарь иностранных слов. М.: 1954